

YONG'IN SODIR BO'LGANDA NIMA QILISH KERAK? YONG'IN BO'LGANDA XAVFSIZLIK QOIDALARI VA ASOSIY TAVSIYALAR

U.B.Sultonov

“NKMK” AJ va “Navoiyuran” DK OYOXTTEM JKB va NSM OYOXTTEB profilaktika va nazorat bo'linmasi inspektori katta leytenant
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10208378>

Yong'in yuz berganda uni o'chirish uchun qilinishi kerak bo'lgan dastlabki harakatlar, xavfsizlik qoidalari, uy, ko'p qavatli bino, avtomobil, jamoat transporti, o'rmon yoki dashtda sodir bo'lsa, nima qilishi kerakligi, yong'in o'chiruvchilarga xabar berish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

Yong'in vaqtida qanday harakatlanish kerak?

- Og'iz va burunni mato bilan yoping, imkoni bo'lsa nam mato bil
- Yong'indan uzoqlashing;
- Ko'p qavatli uyda bo'lsangiz, lift dan foydalanmang;
- Oynani ochib, oshiqcha kislorodning xonaga kirishiga yo'l qo'ymang, aks holda portlash sodir bo'lishi mumkin;
- Yonuvchan suyuqliklarni (benzin, kerosin va boshqalar), shuningdek, elektr energiyasiga ulangan yonib turgan elektr jihozlarni suv bilan o'chirmang.

101 — yong'in o'chiruvchilarga xabar berish tartibi:

- Yong'in chiqqan manzilni aniq va to'liq ayting;
- Yong'in obyektini ayting (uyda, kvartirada, omborxonada va hokazo);
- Yong'in predmetini ayting (lift, televizor, avtomobil, muzlatkich va hokazo)
- Zarur bo'lsa — podyezd va xonadon raqami, binoning qavat, hududga qayerdan borish/kirish qulayligini ham bildiring;
- Familiyangiz va telefon raqamingizni qoldiring;
- Aniq va xotirjam gapiring.

Xona ichida, ko'p qavatli bino yoki odam gavjum joyda yong'in chiqsa:

- Agar yong'in katta bo'lmasa, uni istalgan mavjud vositalar yordamida o'chirishga harakat qiling: o't o'chirgich, istalgan zich mato, qum, suv va boshqalar;
- Elektr simlari bilan bog'liq yong'in chiqsa, maxsus shitdan ta'minotni uzing;
- Qo'shni xonadagilarni, xodimlarni yong'indan ogohlantirib, evakuatsiyaga chorlang;
- Gazni o'chiring;
- Elektr jihozlarni ta'minotidan uzing;
- Chiqib ketish imkoni bo'lsa, yong'in maydonini tark eting;
- Keksalar va yoshlarga yong'in hududini tark etishga ko'maklashing;
- Podyezd yoki koridor tutun bilan to'lishni boshlasa, chiqish eshigiga emaklagan holda boring;
- Xavfsiz joyni tanlang;
- Agar xonadan zinapoya orqali chiqish imkoni bo'lmasa, xona tutun bilan to'lmasligi uchun eshikni ichkaridan nam mato bilan yoping;
- Yong'in shamol sabab alanga olmasligi uchun eshik va derazalarni yong'in o'chiruvchilar kelguncha yopish lozim;

Avtomobil yoki jamoat transportida yong'in chiqsa:

- Haydovchiga yong'in haqida xabar bering;

- Mashinani to'xtating, dvigatelni o'chiring, uni tark eting;
- Jamoat transportida avariya lyuki va yon oynalardan foydalanib, tartib bilan tashqariga chiqing;
- Yong'in o'chiruvchilar kelguncha yong'inni birlamchi yong'in o'chirish vositasi (ognetushitel), qum, suv yoki qor bilan (qishda va qor bo'lsa) o'chirishga harakat qiling;
- Mashina kapotida yong'in chiqsa, uni qo'l bilan o't o'chirgichsiz ochmang. Ochish vaqtida havo oqimi sabab yong'in alanga olishi kuchayadi;
- Yoqilg'i baki portlashi xavfi borligi sabab, yong'inni jilovlab bo'lmasa, mashinadan uzoqlashing.

Dasht yoki o'rmonda yong'in yuz bersa:

- Yong'inni zich mato, tuproq, bargli daraxt shoxlari bilan o'chirishga harakat qiling;
- Agar yong'inni o'chirgan bo'lsangiz, bunga amin bo'ling, qayta alanga olmasligiga ishonch hosil qiling;
- Yong'in kuchli bo'lsa, undan uzoqlashing. Yong'in tarqalishiga perpendikulyar harakat qiling;
- Ketish imkoni bo'lmasa, yaqin atrofda suv (saqlagich, sisterna, quduq va hokazo) bo'lsa, unga tushing va bosh qisimingizni nam mato/kiyim bilan yoping oling;
- Yong'in ochiq maydonda bo'lsa, tutun kamroq joyda egilib harakatlaning.

Yong'in vaqtida nima qilmaslik kerak:

- Estdan chiqqan buyumni olib ketish uchun yong'in joyiga qaytmang. Bu yong'in vaqtida eng ko'p takrorlanadigan xatolardan biri. Tartibsizlik orasida sizni topa olmay qolishlari ham mumkin. Sog'lingiz hech bir buyumdan ustun emas;
- Yong'inni o'chirishga ko'zingiz yetmasa, oxirgi daqiqagacha uni bartaraf etish uchun qolib ketmang. Bu fojiali yakunlanishi mumkin. Jiddiy kuyish jarohati olish xavfidan tashqari tutun sabab odam hushidan ketib, binoda qolib ketishi mumkin. Yong'in vaqtida o'lim holatlari ko'proq olovdan emas, balki aynan tutundan bo'g'ilib qolishdan sodir bo'ladi;
- Tez alanganuvchi (benzin va sh.k.) va yonuvchi (moy va moy mahsulotlari) moddalarni suv bilan o'chirmang. Agar suv bilan o'chirilsa, yong'in tez tarqalib ketadi;
- Balkon yoki derazadan qutqaruvchilarsiz yuqori qavatdan tushishga harakat qilmang. Arqon yoki matolar bilan tushishga harakat qilish yakunda jiddiy jarohatlar bilan yakunlanishi mumkin;
- Yong'indan qochib yuqori qavatga ko'tarilmang. Yong'in va tutun tepaga qarab ko'tariladi. Lift dan emas, zinapoyadan tushing;
- Kravat tagiga yoki shkaf ichiga yashirinmang. Qutqaruvchilar sizni topa olmasligi, tutundan bo'g'ilib, hushdan ketgan holda qolib ketishingiz mumkin.



1. Is gazi o'zi nma va is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Is gazi nima va u qayerdan paydo bo'ladi:

Is gazi barcha moddalar (gaz , ko'mir, yog'och va shu kabi yonuvchi moddalar) ning chala yonishidan, ya'ni xonada, binoda kislorod yetishmasligidan paydo bo'ladi. Ko'p hollarda odamlar sovuq tushishi bilan gaz plitalarini yoqib qo'yishga harakat qilishadi va ko'pincha xonadonlarida shamollatish tizimlari nosoz yoki gaz plitalari ustida havo so'rgich bo'lmaganligi tufayli, yoqib qo'yilgan gaz havodagi kislorodni yoqib tugatadi. Natijada havoda kislorod qolmaganligi, boshqa kislorod kira oladigan joy yo'qligi sababli, gazning chala yonishidan is gazi ajralib chiqqa boshlaydi. Is gazining eng xavfli tarafi shundaki, uning hidi, rangi va ta'mi mavjud emas. Bu shuni anglatadiki, xonada yoki binoda yetarlicha havo aylanishi ta'minlanmasa va is gazi ajralib chiqsa, buni aniqlashni umuman iloji yo'q (agar xonadonda gaz analizatorlari qo'yilmagan bo'lsa). Ajralib chiqqan is gazi nafas olganda inson tanasiga kirib, qisqa vaqtlarda qoniga so'riladi va inson xushidan ketishi, og'ir hollarda hayotdan ko'z yumishiga olib keladi.

Is gazining tabiiy metan gazidan farqi va uni ajratish.

Is gazining xonadonlarda ishlatiladigan tabiiy metan gazdan farqi shundaki, metan gazning tarkibiga hid beruvchi qo'shimchalar qo'shib aholiga uzatiladi, ya'ni agarda xonadondagi metan yoki propan gazi sizib chiqayotgan bo'lsa uni hidini sezsa bo'ladi. Lekin is gazi ajralib chiqqanda uni hech qanday bilishni iloji yo'q. Shu sababli sog'lig'ingiz o'z qo'lingizda, yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qiling!



Is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun nima qilish kerak?

- qo'lbola va nosoz gaz isitish moslamalaridan foydalanmang;
- tungi vaqt o'rnatilgan isitish tizimini nazoratsiz qoldirmang;
- oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalardan xonalarni isitish maqsadida foydalanmang;
- isitish pechlari va ularning mo'rilarini sozligiga, ularni turli buyum va to'siqlar bilan berkitilmasligiga hamda maxsus tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida tozalanishiga alohida e'tibor bering;
- gaz uskunalarni ulash tartib qoidalariga rioya qiling va ularga rezina shlanglar orqali ulanishga yo'l qo'ymang;
- xonani isitish maqsadida ochiq olovdan aslo foydalanmang.
- gaz, ko'mir va o'tin yoqiladigan pechlar o'rnatilgan xonalarda doimiy havо almashinib turishiga alohida e'tibor bering.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabrdagi O'RQ-226 sonli qonuni.
2. Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'grisida"gi VM ning 2020 yil 20 oktyabrdagi 649-sonli qarori.
3. Internet manbalari



INNOVATIVE
ACADEMY